

Karima RAXMANBERDIYEVA,  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti  
G'arb tillari kafedrası dotsenti, PhD

## YAKKA TARTIBDA O'RGANISH VA MUSTAQIL VAZIFA BAJARISHNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** maqolada yakka tartibda o'rganish va mustaqil vazifa bajarishning ta'lim jarayonidagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Yakka tartibda o'rganish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mustaqil vazifa bajarish orqali o'quvchilar o'z mas'uliyatini oshiradi va o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mustaqil ta'limni tashkil qilishning yana bir shunday samarali metodlaridan biri bu HAITI metodidir. Ushbu metodning nomi ish jarayonida amalga oshiriladigan ish bosqichlarining bosh harflari kombinatsiyasini aks ettiradi. Auditoriyada (Im Hörsaal) vazifalar tarqatiladi, har bir talaba yakka tartibda (Alleine) o'rganadi, keyin esa o'rganilgan material yoki yechimi topilishi lozim bo'lgan masala guruh (Im Team) a'zolari bilan muhokama qilinadi va muammolar o'rganiladi. Va nihoyat keyingi darsda (In der nächsten Übung) yechimi topilmagan muammolar va tushunmovchiliklar o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi.

**Kalit so'zlar:** yakka tartibda o'rganish, mustaqil vazifa bajarish, o'quv jarayoni, mustaqil fikrlash, bilimni mustahkamlash

**Аннотация:** в статье анализируется роль и значение индивидуального изучения и самостоятельного выполнения заданий в образовательном процессе. Индивидуальное обучение позволяет учащимся развивать самостоятельное мышление, укреплять знания и совершенствовать практические навыки. При этом выполнение заданий самостоятельно способствует повышению ответственности учащихся и их активному участию в учебном процессе. Одним из эффективных методов организации самостоятельного обучения является метод **HAITI**. Название данного метода отражает комбинацию начальных букв этапов работы, реализуемых в учебном процессе. В аудитории (**Im Hörsaal**) распределяются задания, каждый студент изучает материал индивидуально (**Alleine**), после чего изученный материал или задачи, требующие решения, обсуждаются в группе (**Im Team**), где анализируются возникшие проблемы.

**Ключевые слова:** индивидуальное обучение, самостоятельное выполнение заданий, учебный процесс, самостоятельное мышление, укрепление знаний

**Annotation:** the article examines the role and significance of individual learning and independent task completion in the educational process. Individual learning enables students to develop independent thinking, consolidate knowledge, and improve practical skills. Moreover, completing tasks independently increases students' responsibility and promotes active participation in the learning process. One of the effective methods for organizing independent learning is the **HAITI** method. The name of this method reflects a combination of the initial letters of the stages carried out during the learning process. In the classroom (**Im Hörsaal**), tasks are distributed, and each student studies the material individually (**Alleine**). Afterwards, the studied material or problems that need to be solved are discussed within the group (**Im Team**), and emerging issues are analyzed.

**Keywords:** individual learning, independent task completion, educational process, independent thinking, knowledge consolidation

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy

ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, talabalarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish va ularning mustaqil ta'lim olish

ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yakka tartibda o'rganish va mustaqil vazifa bajarish ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yakka tartibda o'rganish talabani individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallash jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Mustaqil vazifa bajarish esa talabalarda mas'uliyat, o'zini o'zi nazorat qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Ayniqsa, chet tillarini o'rganish jarayonida yakka tartibda o'rganish va mustaqil topshiriqlar talabani til ko'nikmalarini chuqurlashtirish va mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Yakka tartibda o'rganish ta'lim jarayonida har bir talabani individual o'rganish sur'ati, bilim darajasi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Bunda talaba o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'ziga qulay bo'lgan usul va strategiyalarni tanlaydi, bu esa bilimlarni yanada puxta egallashga yordam beradi. Yakka tartibda o'rganish talabani bilimga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va uni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Shuningdek, yakka tartibda o'rganish talabalarda o'z-o'zini boshqarish, rejalashtirish va vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talaba o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga erishish yo'llarini mustaqil ravishda belgilaydi. Bu esa nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajak kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakka tartibda o'rganish va mustaqil vazifa bajarish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida bir-birini to'ldiradi. Yakka tartibda o'rganish orqali talaba bilimlarni individual tarzda egallasa, mustaqil vazifalar orqali ushbu bilimlarni amaliyotda sinab ko'radi. Ushbu jarayonlar uyg'unligi talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarning barqaror shakllanishiga olib keladi.

Natijada, yakka tartibda o'rganish va mustaqil vazifa bajarish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalarining o'zini o'zi rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Guruhlarga vazifalar berilgandan so'ng guruh a'zolari yakka tartibda o'quv materialini o'rganib chiqishadi yoki berilgan

vazifalarni yakka tartibda bajarishga urinib ko'radi. Keyingi bosqichda guruh a'zolari uchrashib, berilgan vazifa va erishilgan natijalar guruhda muhokama qilinadi, xatolar va kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Axborotchi esa yechimi topilmay qolgan vazifalar hamda qiyinlik qilgan vazifalarni yozib boradi va o'qituvchiga xabar beradi. Bu o'qituvchiga keyingi vazifalar to'plamini shakllantirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axborotchi bergan xulosalaridan kelib chiqib, talabalarga qiyinlik qilgan vazifalar ustida yana ishlash uchun vazifalar tuzadi. Talabalar uchun oson bo'lgan vazifalar keyingi topshiriqlar majmuasiga kiritilmaydi. Ko'rib chiqilgan metodlar mustaqil ta'limni tashkil qilishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar talaba va o'quvchilarni nafaqat mustaqil ishlash, mustaqil o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi, balki ularda guruhda ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga ham yordam beradi. An'anaviy darslardan farqli o'laroq, o'qituvchi va talabani roli o'zgaradi. Ta'limning bu turi uchun o'qib-o'rganish vaqti (muddatini hisobga olgan holda) va maqsadlari, kerakli asbob-uskuna, qurilmalar va o'quv qurollarini tayyorlab olish va nihoyat ta'lim olish joyini aniqlab olishni talab qiladi. Navbatdagi yana bir samarali metod Think-Pair-Share metodidir.

Think-Pair-Share metodi hamkorlikda o'qib-o'rganish metodlaridan biri bo'lib, tuzilish jihatidan uch bosqichni qamrab oladi. Ushbu metod asosida o'qishni tashkil qilish davomida talabalar mustaqil o'qib-o'rganishdan boshlaydilar va bu bosqichda ular berilgan mavzu va topshiriqlarni mustaqil, yakka tartibda o'rganib chiqishlari lozim bo'ladi. O'rganilgan mavzu va topshiriqlar keyingi bosqichlarda boshqa talabalar va guruh a'zolariga tushuntiriladi. Muhimi talabalar alohida bosqichlarda mavzular va topshiriqlar ustida mustaqil ishlay olishlari kerak, shunda ular hamkorlikda o'rganish bosqichida bu mavzularni boshqa talabalarga tushuntirishlari yoki kursdoshlari bilan berilgan mavzular bo'yicha fikr almashishlarining imkoni bo'ladi. Think-Pair-Share ingliz tilidan tarjima qilinganda think, ya'ni o'ylash, fikr yuritish, pair esa juft, ya'ni talabani u bilan birga muhokama qiladigan sherigi va share bo'lishmoq so'zlaridan tashkil topgan. Ushbu metod yordamida unchalik keng qamrovli

bo'lmagan va hatto murakkab mavzularni ishlab chiqish mumkin. Ushbu metod yordamida o'qib-o'rganish ayniqsa, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va bilimlarni yaxshiroq egallashga ko'mak beradi.

**Ikkinchi bosqichda** u o'rgangan bilimlarini boshqa bir talaba bilan o'rtoqlashadi (Pair).

**Uchinchi bosqichda** barcha olingan bilimlar va g'oyalar guruhning barcha a'zolari bilan muhokama qilinadi (Share).

Ushbu uch bosqich quyidagicha tashkil qilinadi:

1. Fikr yuritish, ya'ni think bosqichida talabalarga vazifa beriladi. Bu matn, diagramma, grafikni tasvirlash yoki kerakli xulosalarni yozishga asoslangan vazifalar bo'lishi mumkin.

2. Navbatdagi bosqichda ular qilgan ishlarini va xulosa va natijalarini biror kursdoshiga tushuntirib, uni 5-10 minut davomida muhokama qilishlari kerak bo'ladi. Pair bosqichida talabalar ikki kishidan iborat guruhlarda ishlaydilar va natijalarni muhokama qiladilar: bunda birinchi talaba ikkinchi talabaga tushuntiradi va ikkinchi talaba aytilgan fikrlarni qayd etib boradi. Keyin xuddi shu tarzda takrorlanadi: ikkinchi talaba fikrlarini bayon qiladi, birinchi talaba esa yozib oladi. 5-10 minut davomida talabalar nafaqat o'zlarining fikr va mulohazalari, balki sherigining ham xulosalari bilan yaxshi tanishib chiqqan bo'lishlari, hatto uni taqdim qila olishlari lozim bo'ladi.

Ushbu metodlar talabaning faqatgina individual ishlashi bilan cheklanib qolmasligi, guruhda

ishlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Yuqorida qayd etilgan metodlarning yana bir afzalliklaridan biri unda o'qituvchi faqatgina bilim berish bilan chegaralanib qolmay, talabani ham mustaqil o'qib-o'rganishga undaydi, mustaqil ta'limni tashkil qiladi va o'zi kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Bu esa talabada erkin fikrlash, o'zini yanada rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish, kreativ bo'lish va o'zi o'rgangan bilimlarni o'rgatish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot doirasida ingliz tili mashg'ulotlarini loyihalashda I.Yu.Shexter usuli o'rganildi. Uning asosida til o'rganish jarayonida tahsil oluvchining til o'rganish shart-sharoitlarini tashkil qilish va til materialiga chuqur kirib borishga asoslanadi. Chunki til aslida turli qonun-qoidalar majmuasi ema, balki insonning to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borish layoqati sanaladi. Shuning uchun metodda turli grammatik qonun-qoidalar yodlanmaydi, chet tili so'zlari xotiraga olinmaydi, uning o'rniga tilda muloqot qilish layoqati rivojlantiriladi. Mazkur jarayonda xatolar qilishga yo'l qo'yiladi. Til o'rganish muhitini yuzaga keltirish uchun "rolli o'yinlar" usuli keng qo'llaniladi. Turli mavzular tanlanadi va mazkur mavzular doirasida leksik qatlamlar, so'z boyligi, jumlar qurilishi mashqlar qilinadi. Qilingan mashqlar insonning xotirasi osti qatlamida saqlanib qoladi. Improvizatsiyaga keng yo'l beriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фадеева Н.Б. Самостоятельная работа учащихся 6-7 классов на уроках иностранного языка при овладении устной (монологической) речью: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. – Л., 1987
2. Лозовская Г.А. Организационная самостоятельная работа студентов младших курсов вуза: Дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. – Новочеркасск, 1975. 197 с.
3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность школьников в обучении. – М., 1980. 240 с. 109. познавательная, 146-б.
4. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. – М.: Педагогика, 1987. 124 с
5. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. ... докт. пед.наук. – Т., 2005. – С.311.
6. Белкин Е.Л. Основы педагогики высшей школы. Учеб.пособие. – М.: Педагогика, 1987. 124 с.